IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 23. Issue 02. Sentabr, 2026

MUNOZARA ILMI: HAQIQATNI IZLASH VA ILMIY BAHS MADANIYATI

Maxmudov Asrorxon Yusufxonovich
Mir Arab oliy madrasasi katta o‘qituvchisi
Email: mahmudovasrorxon4@gmail.com
Telefon: +998905130515
https://doi.org/10.5281/zenodo.23001815

Annotatsiya: Ushbu maqolada islom ilmiy tafakkurida shakllangan “Munozara ilmi”ning mohiyati, maqsad va vazifalari yoritilgan. Ilmiy bahsda haqiqatni izlash tamoyillari, dalil va da'voni farqlash, shuningdek, e'tiroz bildirishning qat'iy mezonlari bo'lgan man‘, mu‘oraza va naqz kabi usullar tahlil qilinadi. Maqolada munozara ilmida ta'rif va taqsimning o'rni, murakkab gap turlarining bahs mavzusi bo'lish shartlari o'rganilgan. Xulosa o'rnida munozara madaniyatining bugungi axborot davridagi ahamiyati va yoshlarda, xususan talabalarda tahliliy hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi o'rni ochib berilgan.
Kalit so‘zlar: munozara ilmi; ilmiy bahs; haqiqatni izlash; da'vo; dalil; man‘; mu‘oraza; naqz; Ruknuddin al-Amidiy; ta'rif; taqsim; jome‘ va mone‘; tanqidiy fikrlash; islom tafakkuri; xabariy qaziyya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются сущность, цели и задачи «Науки о диспуте» (Мунозара), сформировавшейся в исламской научной мысли. Анализируются принципы поиска истины в научном споре, различие между утверждением и доказательством, а также основные методы обоснованного возражения, такие как ман‘ (отклонение), му‘ораза (противопоставление) и накз (опровержение). В статье изучается роль определений и классификаций в диспуте, а также условия, при которых различные типы предложений могут стать предметом обсуждения. В заключение раскрывается значение культуры ведения диспута в современную информационную эпоху и ее роль в развитии аналитического и критического мышления у студентов.
Ключевые слова: наука о диспуте; научный спор; поиск истины; тверждение; доказательство; ман‘ (отклонение); му‘ораза противопоставление); накз (опровержение); Рукнуддин аль-Амиди; определение; классификация; всеобъемлющий и исключающий; критическое мышление; исламская мысль; информативное суждение.

Abstract: This article explores the essence, goals, and objectives of the "Science of Debate" (Munadhara) developed within Islamic scientific thought. It analyzes the principles of seeking truth in scientific disputes, distinguishing between claims and evidence, and strictly defined methods of objection such as man‘ (rejection), mu‘arada (counter-argument), and naqd (refutation). The article examines the role of definitions and classifications in debate, and the conditions under which different types of sentences can be discussed. Finally, it highlights the significance of debate culture in the modern information age and its role in fostering analytical and critical thinking among students.
Keywords: science of debate; scientific dispute; seeking truth; claim; evidence; man‘ (rejection); mu‘arada (counter-argument); naqd (refutation); Rukn al-Din al-Amidi;

definition; classification; exhaustive and exclusive; critical thinking; Islamic thought; declarative proposition.

Inson tafakkuri savoldan boshlanadi. Savol esa tabiiy ravishda fikrlar xilma-xilligini, fikrlar xilma-xilligi esa muhokama va bahsni yuzaga keltiradi. Bir masalaga turli nuqtai nazardan qarash, dalillarni qiyoslash, ilgari surilgan fikrning kuchli va zaif jihatlarini aniqlash ilmiy faoliyatning ajralmas qismidir. Biroq har qanday bahs ham ilmiy munozara hisoblanmaydi. Agar bahsning maqsadi raqibni yengish, uni sukutga majbur qilish yoki o‘z fikrini qanday bo‘lmasin ustun ko‘rsatish bo‘lsa, bunday tortishuv haqiqatni aniqlash vositasi bo‘la olmaydi. Islom ilmiy tafakkurida bahs va munozaraga aynan shu nuqtai nazardan yondashilgan. Fikrni dalil bilan tekshirish, e’tirozning maqbul va nomaqbul shakllarini farqlash, da’vo bilan dalilni ajratish, ilmiy muhokamani tartibli olib borish uchun maxsus qoidalar ishlab chiqilgan. Vaqt o‘tishi bilan ushbu qoidalar alohida fan sifatida shakllanib, munozara ilmi deb atalgan. Bu fan kishini ko‘p bahslashishga emas, to‘g‘ri bahslashishga, shaxsni emas fikrni muhokama qilishga va eng muhimi, bahs davomida haqiqatni ko‘zlashga o‘rgatadi.

Munozara nima?

“Munozara” so‘zi lug‘atda “qarama-qarshi turish”, “yuzma-yuz kelish”, “qiyoslash” va “muqobillik” kabi ma’nolarda ishlatiladi. Istilohda esa u ikki shaxs o‘rtasida davom etadigan ilmiy muloqot bo‘lib, unda har bir tomon o‘z fikrining to‘g‘riligini ko‘rsatish va qarshi fikrdagi xatoni aniqlashga harakat qiladi. Biroq ta’rifning eng muhim qaydi shuki, har ikki tomon ham haqiqatning yuzaga chiqishini istashi kerak. Shu jihat munozarani oddiy tortishuvdan ajratib turadi. Oddiy bahsda inson “qanday bo’lmasin haq ekanimni isbotlashim kerak”, deb o‘ylashi mumkin. Ilmiy munozarada esa “qaysi fikr haq ekanini dalil bilan aniqlash kerak”, degan yondashuv ustuvor bo‘ladi[1, 30 b]. Demak, munozaraning maqsadi insonni yengish emas, masalani oydinlashtirishdir. Shu bilan birga qarshi tomonning dalili kuchliroq bo‘lsa, uni tan olish ham ilmiy madaniyatning bir qismidir.

Munozara ilmining mavzusi

Munozara ilmida bahs jarayonida qo‘llanadigan umumiy e’tiroz va javob usullari o‘rganiladi. Ularning qaysi biri o‘rinli, qaysi biri noo‘rin, qachon e’tiroz bildirish mumkin va qachon bunday e’tiroz ilmiy mezonga to‘g‘ri kelmasligi shu fan qoidalari orqali aniqlanadi. Bu borada ayniqsa uch istiloh muhim: man‘, mu‘oraza va naqz.

Man‘ – biror da’vo yoki dalilning muayyan qismini qabul qilmasdan, uning isbotini talab qilishdir. Masalan, kimdir “Bu usul eng to‘g‘ri usuldir”, desa, qarshi tomon “Uni eng to‘g‘ri deb baholashingizning dalili nima?” deb so‘rashi mumkin. Bu yerda u hali da’voni inkor qilgani yo‘q, faqat isbot talab qilmoqda. Shu jihatdan man‘ ilmiy tafakkurda “Nega?” degan savolni o‘rinli joyda bera olishdir.

Mu‘oraza – bir dalil qarshisiga boshqa dalil qo‘yishdir. Bunda “Men nu dalilga rozi emasman” deyishning o‘zi kifoya qilmaydi. Qarshi tomon o‘z fikrini dalil bilan asoslaydi. Natijada bahs shaxsiy qarama-qarshilikka emas, dalillarni qiyoslashga aylanadi.

Naqz – keltirilgan dalil yoki umumiy qoidaning barcha holatlarda ham ishlamasligini ko‘rsatishdir. Masalan, biror kishi umumiy qoidani ilgari sursa, qarshi tomon unga mos kelmaydigan aniq holatni ko‘rsatishi mumkin. Shu tariqa da’voning chegarasi yoki zaif nuqtasi

aniqlanadi. Bu usullar munozaraning tartibsiz tortishuv emas, balki muayyan metodga asoslangan ilmiy jarayon ekanini ko‘rsatadi[2, 40 b].

Munozara ilmini o‘rganishning foydasi

Munozara ilmining eng katta foydasi – inson tafakkurini xatodan saqlashdir. Inson ko‘pincha o‘z fikrini tabiiy ravishda to‘g‘ri deb qabul qiladi. O‘z dalilidagi zaiflikni sezmasligi, biroq boshqaning fikridagi kichik nuqsonni tez ilg‘ashi mumkin. Munozara ilmi esa kishini o‘z fikriga ham tanqidiy qarashni o‘rgatadi. Bu ilmdan boxabar bo’lgan kishi o‘ziga: “Men aslida nimani da’vo qilyapman? Dalilim nima? Bu dalil da’voyimni to‘liq isbotlayaptimi? Qarshi dalil mavjud emasmi? Ishlatayotgan tushuncham aniqmi?” kabi savollarni bera boshlaydi. Ana shu savollar ilmiy tafakkurning sifatini oshiradi. Shuning uchun yaxshi munozarachi avvalo boshqalarning emas, o‘z dalilining tanqidchisi bo‘la olishi kerak. Munozara ilmi shu bilan birga haqiqatni bayon qilish, noto‘g‘ri qarashlarga ilmiy javob berish va daliliy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli klassik manbalarda bu ilmni o‘rganish farzi kifoya deb baholangan. Ayrim kishilar uchun esa kasbi, ilmiy faoliyati yoki zimmasidagi vazifaga qarab uni o‘rganish alohida zaruratga aylanishi mumkin.

Munozara ilmining shakllanishi

Ilm tarixida ko‘plab fanlar avval amaliy tarzda mavjud bo‘lib, keyinchalik ularning qoidalari alohida tizimlashtirilgan. Munozara ilmi ham shu yo‘lni bosib o‘tgan. Dastlabki davr ulamolari kuchli ilmiy salohiyat va sog‘lom tafakkur sababli bahs jarayonida to‘g‘ri usullarga tabiiy ravishda amal qilganlar. U davrda munozara qoidalari hali mustaqil fan sifatida tartibga solinmagan bo‘lsa ham, ilmiy suhbat va bahslarda mazkur mezonlar amalda mavjud edi. Vaqt o‘tib, ilmiy masalalar kengaydi, bahslar murakkablashdi va bahslashayotgan ikki tomon amal qilishi lozim bo‘lgan qoidalarni alohida bayon qilishga ehtiyoj tug‘ildi. Manbalarda ushbu qoidalarni mustaqil fan sifatida tartibga solgan olimlardan biri sifatida hanafiy alloma Ruknuddin al-Omidiy, “al-Irshod” asari muallifi zikr qilinadi. U hijriy 615-yilda vafot etgan. Munozara ilmi aqliy ilmlardan biri sifatida shakllangan. Chunki uning vazifasi muayyan fiqhiy yoki kalomiy hukmni bevosita o‘rgatish emas, balki fikrni qanday asoslash, dalilni qanday tekshirish va e’tirozni qanday tartibda bildirish kerakligini ko‘rsatishdir.

Har qanday gap munozara mavzusi bo‘ladimi?

Munozara ilmi har qanday so‘z yoki ibora ustida bahs yuritilmasligini ham o‘rgatadi. Klassik tasnifga ko‘ra, so‘z avvalo mufrad va murakkabga bo‘linadi. Murakkab esa noqis va tom, murakkabi tom esa o‘z navbatida inshoiy va xabariy turlarga ajratiladi. Bu tasnif munozarada aynan qaysi turdagi ifoda ilmiy bahsning mavzusi bo‘lishi mumkinligini aniqlashga xizmat qiladi.

Mufrad so‘z – masalan, “ilm”, “inson”, “adolat” kabi alohida tushuncha – o‘z holicha munozara mavzusi bo‘lmaydi. Agar uning ma’nosi noaniq yoki kam qo‘llanadigan bo‘lsa, avval: “Bu so‘z bilan nimani nazarda tutyapsiz?” deb aniqlik kiritiladi. Bu oddiy qoida juda muhim, chunki ko‘plab bahslar aslida qarashlar farqidan emas, bir xil so‘zga turlicha ma’no berishdan kelib chiqadi.

Murakkabi noqis esa ma’nosi hali to‘liq hukmni ifodalamaydigan birikmadir. Masalan, “fikrlovchi jonzot” kabi ifoda mustaqil ravishda tasdiq yoki inkorni bildirmaydi. Biroq u biror hukmning qaydi yoki tarkibiy qismi sifatida kelgan bo‘lsa, aynan shu jihatdan munozara mavzusiga aylanishi mumkin. Agar u hech qanday qaziyyaning qaydi bo‘lmasa, uning ustida alohida munozara yuritilmaydi[3, 48 b].

Murakkabi tom inshoiy gap esa buyruq, so‘roq, iltimos, undov kabi mazmunlarni ifodalaydi va odatda rost yoki yolg‘on deb baholanmaydi. Shu sababli u o‘z holicha munozaraning bevosita mavzusi bo‘lmaydi. Biroq bunday gap boshqa bir shaxs yoki manbadan naql qilingan bo‘lsa, munozara uning mazmuni ustida emas, balki naqlning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi ustida olib borilishi mumkin. Bunday holatda naql qiluvchidan keltirgan so‘zini ishonchli tarzda tasdiqlashi talab etiladi. Agar inshoiy gapni kishi o‘zidan aytayotgan bo‘lsa, uning o‘zi munozara mavzusiga aylantirilmaydi.

Murakkabi tom xabariy esa hukm va da’voni ifodalaydi. Masalan, “Bu dalil ushbu hukmni isbotlaydi”, degan jumla munozara mavzusi bo‘la oladi. Chunki unda rost yoki noto‘g‘ri deb baholanishi, tasdiq yoki inkor qilinishi mumkin bo‘lgan mazmun mavjud. Shu sababli ilmiy munozaraning asosiy maydoni – xabariy qaziyya va da’volardir.

Ta’rif va taqsim nega munozara qilinadi?

Bir qarashda ta’rifning o‘zi hukm emasdek ko‘rinadi. Ammo munozara olimlari ta’rif ichida ham bir necha yashirin da’vo mavjudligini ko‘rsatganlar. Masalan, “Inson – hayvonun notiq”, ya’ni “fikrlovchi jonzot”, deyilganda, ta’rif beruvchi uning mohiyatni to‘g‘ri ifodalashini, zotiy sifatlarni qamrab olishini, barcha tegishli individlarni o‘z ichiga olishini va begona narsalarni tashqarida qoldirishini da’vo qilgan bo‘ladi. Shu bois yaxshi ta’rif jome‘ va mone‘ bo‘lishi kerak. Jome‘ – ta’riflanayotgan narsaning barcha turlarini qamrab olish, mone‘ esa unga kirmaydigan narsalarning ta’rif doirasiga kirib qolishiga yo‘l qo‘ymaslikdir. Masalan, “Talaba – kitob o‘qiydigan kishi”, deyish mukammal ta’rif bo‘la olmaydi. Chunki kitob o‘qiydigan har bir kishi talaba emas, barcha talabalar ham ayni vaqtda kitob o‘qib o‘tirmaydi. Taqsimda ham shunga o‘xshash holat bor. “Kalima ism, fe’l va harfga bo‘linadi”, deyilganda, taqsim barcha turlarni qamrab olishi, qismlar umumiy tushunchaning haqiqiy turlari bo‘lishi va ular bir-biri bilan chalkashib ketmasligi nazarda tutiladi. Shuning uchun ta’rif ham, taqsim ham o‘z zamiridagi da’volar sababli ilmiy munozaraga ochiqdir[4, 55 b].

Ilmiy bahs madaniyati

Munozara ilmining qoidalaridan kelib chiqadigan muhim natijalardan biri – bahsning markazida shaxs emas, fikr va dalil turishi kerakligidir. Bir fikrning noto‘g‘ri bo‘lishi uning egasini yomon inson qilmaydi. Bir dalilning zaifligi ham uni keltirgan kishining barcha ilmiy faoliyatini inkor etishga asos bo‘la olmaydi. Shu sababli ilmiy bahsda “Siz xatokor odamsiz” deyishdan ko‘ra, “Bu dalil ushbu natijani to‘liq isbotlamayapti”, deyish aniqroq va adolatliroq yondashuv hisoblanadi[5, 80 b]. Yana bir muhim jihat – qarshi fikrni to‘g‘ri tushunish. Inson javob berishdan oldin suhbatdoshining asl maqsadini anglab olishi kerak. Aks holda u qarshi tomonning real fikriga emas, o‘zi tasavvur qilgan fikrga javob berib qoladi. Ilmiy adolat shuni talab qiladiki, avval qarshi tomonning pozitsiyasi xolis bayon qilinadi, keyin unga e’tiroz bildiriladi. Munozara ilmida axloqiy mezon ham juda muhim. Xolislik, sabr, qarshi tomonning gapini eshita bilish, xato ayon bo‘lsa undan qaytish va to‘g‘ri fikrni kim aytganidan qat’i nazar tan olish ilmiy munozaraning ruhini tashkil etadi. Chunki haqiqatni tan olish mag‘lubiyat emas. Agar inson bahs davomida xato fikrdan to‘g‘ri fikrga o‘tsa, u yutqazmagan, aksincha, xatodan qutulgan bo‘ladi[6, 85 b].

Bugungi kun uchun munozara ilmining ahamiyati

Bugun inson nihoyatda katta axborot oqimida yashamoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va turli axborot platformalarida har kuni minglab da’volar ilgari suriladi. Ammo ta’sirchan ifoda, ko‘p marotaba takrorlanish yoki mashhurlik bir fikrni o‘z-o‘zidan to‘g‘ri qilib qo‘ymaydi. Shu sababli munozara ilmining qadimiy savollari bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan: da’vo nima, uning dalili qayerda, dalil xulosani qanchalik isbotlaydi, qarshi dalillar hisobga olinganmi, tushunchalar aniqmi?

Ayniqsa, talabalar uchun bu fan matnni tahliliy o‘qish ko‘nikmasini shakllantiradi. Talaba muallifning asosiy da’vosini, dalilini, yashirin muqaddimalarini, ta’rif va taqsimlarini kuzatishga odatlanadi. Ustoz uchun esa munozara ilmi darsni oddiy ma’lumot yetkazishdan tafakkurni tarbiyalash darajasiga olib chiqadi. “Bu hukm shunday”, deyish bilan cheklanmasdan, “Nega shunday? Dalili nima? Qarshi fikr qanday? Bu ta’rif mukammalmi?” kabi savollar orqali talabada mustaqil tahlil qobiliyati shakllantiriladi.

Xulosa. Munozara ilmi – bahsda g‘olib chiqish san’ati emas, haqiqatni dalil orqali aniqlash madaniyatidir. U insonni da’voni dalildan ajratishga, dalilni sinchiklab tekshirishga, qarshi fikrni eshitishga va o‘z xulosasini qayta ko‘rib chiqishga o‘rgatadi. Man‘ orqali da’voning isboti talab qilinadi, mu‘oraza orqali unga qarshi dalil qo‘yiladi, naqz orqali esa dalil yoki umumiy qoidaning zaif nuqtasi aniqlanadi. Ammo barcha texnik qoidalardan yuqorida turadigan bir tamoyil bor: haqiqatning yuzaga chiqishini istash. Ilmiy munozaraning haqiqiy samarasi kimdir sukutda qolganida emas, masala avvalgidan ravshanroq bo‘lganida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan munozara ilmini o‘rganish faqat bahs yuritishni emas, fikrlashni, tinglashni, dalilni qadrlashni va haqiqat oldida xolis turishni o‘rganishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Shayx Muhiddin Abdulhamid. Risolatul odob fi ilmi odob al-bahs val-munozara. Qohira. Dor al-kutub al-misriyya. 2021.
2. Ruknuddin al-Omidiy. Al-Irshod fil-xilof val-jadal (Nizomuddin Abdulhamid tahqiqi ostida). – Misr: Matba'at al-Irshod, 1971.
3. Muhammad Amin ash-Shinqitiy. Odob al-bahs val-munozara. – Makka: Daru a’lam al-favoid, 2005.
4. Abdurahmon Hasan Habannak al-Maydoniy. Zavobit al-ma'rifa va usul al-istidlol val-munozara (Bilim mezonlari hamda dalil keltirish va munozara asoslari). – Damashq: Dar al-Qalam, 1993.
5. Abu Homid G'azzoliy. Mi'yor al-ilm fi fann al-mantiq (Mantiq fanida ilm mezoni). – Bayrut: Dar al-Andalus, 1990.
6. Mahmudov T., Pulatov Sh. Mantiq: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006.
7. Alouddin Usmandiy as-Samarqandiy. Tariqat al-xilof fi al-fiqh bayna al-aimma al-aslaf (O'tmish peshvolari orasidagi fiqhiy xiloflar uslubi). – Qohira: Dar at-turos, 1992.